

KITOBSEVAR BOLALAR O'ZGACHATARBIYA TOPADILAR

Qo'chqarov Mirzavali

*Namangan viloyati pedagogi mahorat markazi maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya

Kitob mutolaasi jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona -Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda maktab va oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish ko'zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: ma'no-mazmun, omil, ma'naviyat, tafakkur, mas'uliyat, PIRLS, oila ko'magi.

Kitob mutolaasiga havas avvalo, oiladan boshlanishi, ota-onalar farzandlarida kitob o'qishga mehr uyg'otishi uchun o'zlari kitobxon bo'lishlari lozim.

Shavkat Mirziyoev

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlar – ulkan kuch” degan gaplari bilan boshlasak. Hamma soha kabi bola hayotida kitobxonlik ham bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davri muhim o'rin tutadi. “Bo'ladigan bola boshidan ma'lum” degan dono xalqimiz. Shu boisdan ham, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarish ularning bilimi, istedodi, jasorati, ma'naviy barkamolligiga bog'liq.

Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: “Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman”. Professor V.F.Asmus o'zining “Kitobxonlik - mehnat va ijod” nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: “Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi”. “Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To'xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni,

o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir”.

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rolini oshirish orqali fuqarolarimizning, ayniqsa, mamlakat yoshlarining ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol etib tarbiyalash, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi g'oyasi orqali yuksak fuqarolik mas'uliyatini his qilish, anglash va jamiyatga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashga muntazam da'vat etish nafaqat pedagoglarning, balki barchaning sujumladan ota-onalarning ham maqsadi boqlishi zarur.

Mashhur fransuz faylasufi Frans Bekon “Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalaridir” deb bejiz aytmagan. Zero, kitob aqlni charhlaydigan, aql bulog'ini ochadigan va uni ilhomlantiradigan buyuk mo'jizadir.

Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyatining ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos va bebaho o'rni qadimdan hammamizga ma'lum. Kitob dunyoni tanitish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini ham paydo qiladi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Afsuski, hozirgi ota-onalarimiz ana shu mas'uliyatni ham, ma'rifatlilikni ham unutib qo'yimoqdalar maktabdagi jarayonlarni ham bir tomonlama tahlil qilib, faqat bir tomondan yondashishni ma'qul ko'rmoqdalar. Biz kattalar ko'p hollarda o'rnak bo'lishimiz kerak.

PIRLS tadqiqoti natijalarida ham shu narsa ayon bo'ldiki, ota-onalari kitob o'qiydigan bolalar ota-onalari kitob o'qimaydigan bolalarga qaraganda anch ko'p bal to'plaganliklari ham ota-onalarning kitob o'qishdagi shaxsiy namunasi bolalarga qay darajada ta'sir etishi mimkinligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ham farzandining kitob mutolaa qilishini nafaqat nazorat qiish, balki o'zlari o'qib berishlari lozim deb o'ylayman. Kitob bolaning ma'naviy boyishi, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o'smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Sakkinchi mo'jiza sifatida e'tirof etiladigan kitob inson qalbining chinakam hamrohi, aql va fikr qayrog'idir. Shiddat bilan taraqqiylashib borayotgan globallashuv asrida,

jilovlab bo‘lmas axborotlar oqimi davrida yashayapmiz. Rango-rang, inson ong-u tafakkuriga tez ta’sir eta oladigan g‘oyalar, fikrlar shu qadar ko‘pki, ularni “hazm qilishimiz” oson bo‘lmaydi. Saragini sarak, puchagini puch deydigan eng muruvvatli ustoz bu – yaxshi kitoblardir.

Darhaqiqat, shaxs takomilida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita rolini o‘taydi. Ota-onaning ma’naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko‘chib o‘tadi, farzandlar shaxsiyatida aks-sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat ham inson ma’naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sirasidandir. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o‘zidagi bu tuyg‘u va fazilatlarni atrofidagilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli yuqori. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobga o‘zgacha mehr ko‘rsatadi, bu ma’naviyat xazinasiga tabiiy qiziqish va intilish tuyadi. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota-onaning tarbiyali bo‘lishi, badiiy adabiyotga oshno ekanligi muhim zaruriyatdir.

Oila kitobxonligi bu - oila a‘zolarining aql-zakovati va yuksak ma’naviyatini shakllantiruvchi, inson ma’naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma’lum tizimidir. Bu tizim o‘quvchilarning aqliy, ma’naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo‘lib, o‘zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an‘anasi va hozirgi davrda to‘plangan boy tajribasiga asoslanadi.

O‘quvchilar rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e’tibor berishlari lozim deb o‘ylayman:

1. O‘quvchilarda kitob o‘qish ishtiyoqini shakllantirish. Nihoyatda murakkab bo‘lgan bu masala o‘quvchilarning kitobxonlikka bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, o‘quvchilarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo‘li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o‘qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya’ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo‘lgan kitoblar tanlash qo‘l keladi.

2. Kitob tanlashda o‘quvchning ma’naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o‘quvchiga kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo‘lgan adabiyotlarni keng targ‘ib qilish o‘quvchilarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo‘lib etishishi uchun va ma’naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O‘qituvchi, ota-ona o‘quvchini kitobxonga aylantirib borishida uni ixtisoslashtirib borish yo‘lini tutishi kerak. Boshlangich bosqichlardan o‘quvchining ma’naviy dunyosi, tarbiya muhiti, qiziqishi,

dunyoqarashi va ruhiy xususiyatlari hisobga olinib, ixtisoslashtirilib borilishi kerak. Bu tajriba Amerika ta'lim tizimida o'zini oqlagan

4. Kitobni tahlildan o'tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib borgan sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Tabiiyki, bu hol turli saviyadagi kitoblarning nashr etilishiga sabab bo'lmoqda. Shu ma'noda ota-ona bola uchun kitob tanlayotganida kitobning ma'no-mazmuni, uslubiy jihatdan mutaxassis ko'rigidan o'tkazib olishi maqsadga muvofiq.

5. Kitob o'qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo'lgan kitobxonlik bilan ko'proq qiziqishi kerak. Shu ma'noda o'quvchilar kitobxonligini monitoring kilib borish maqsadga etishning samarali jihatlaridan biridir.

Ota-onalar bolalarga kitob tanlashda, ayniqsa, o'quvchilarning yoshi, ruhiyati, qiziqishi, didini hisobga olishi yoki zarur hollarda mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak. Shu bilan birga bola o'qiyotgan har bir badiiy asarning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor berish zarur.

Boladagi barcha tarbiyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona kitobga munosabat va uni o'qishda o'z farzandlariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish muhimdir.

Shu o'rinda o'quvchilarni mustaqil kitobxonlikka qiziqitiruvchi bir-ikkita texnologiyalarini ham tavsiya etmoqchiman.

“Begona so‘z” usuli. Bu usul uchun biror bir she'r yoki matn asos qilib olinadi. O'quvchilar berilgan vaqt ichida jadvalda berilgan 4 ta so'zdan matn yoki she'rda uchramaydigan so'z yoki so'zlarni topishi talab qilinadi.

Ikkinchi tavsiya etilayotgan usul **“Boshlab berish” usuli.**

Bu usulda o'qituvchi biron bir matnni o'qib beradi. Voqea eng qiziqarli jarayoni kelganda o'qituvchi o'qishni to'xtatib qolgan qismini mustaqil o'qib kelishga topshiradi. Keyingi gal o'quvchilar voqea qanday davom etganligini o'qituvchi bilan birga muhokama qiladilar.

Uchinchi tavsiya etilayotgan usul **“Kim ko‘p so‘z eslab qoldi” usuli.**

Bu usulda o'quvchilarga biron bir badiiy matn o'qib eshittiriladi. So'ng o'quvchilarga matnda ishtirok etgan so'zlar yozigan qog'ozchalardan terib olishlari aytiladi. Bunda o'quvchilar qo'llarini ishlatmasdan so'zlarni yig'ishlari kerak.

Har uchchala usul ham o'quvchilarni mustaqil kitobxonlikka qiziqishlarini oshirish uchun samarali deb hisoblayman.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta‘lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. Bolani qalban yuksak, ma‘naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror odob-axloq qoidalar doir bilimlarni o‘rgatish, e‘tiqodiga aylantirish, komillikka yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma‘naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz.

Badiiy asarlar orqali o‘quvchilarni nutqini va tafakkirini o‘stirish, bolalarda kitobga muhabbat uyqotish, ya‘ni kitobni sevuvchi, kitob bilan ishlashni biladigan chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni aylantirish, o‘quvchilarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish va axloqiy estetik jihatdan mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarori, 2017-yil 12-yanvar.
2. Qayumxo‘jaeva Y. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. Toshkent: Fan, 2007- yil
3. Azimov A, Umirova A. Kitobxonlik va mutolaa madaniyati. Hurriyat. 2017. 25.01.
4. Alijonova S. O‘zini hurmat qilgan kitob o‘ qiydi: (Kitob va kitobxonlik to‘g‘risida). Ma‘rifat, 2017. 14 yanvar
5. Jumaniyozov R. Mutolaaga mehr bolalikdan uyg‘onsin. Hurriyat, 2017. 1-feval.